

YURIDIK SHAXSLAR BEKOR BO'LISHINING USULLARI VA UNING HUQUQIY OQIBATLARI

Kalimbetov Ernazar Kurbanbaevich

QDU Stajer oqituvchi

ernazarkalimbetov@gmail.com

Adilbaev Bekbosin Abatbaevich

QDU Stajer oqituvchi

bekbosinadilbaev221@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Yuridik shaxslarning bekor bo'lishi har doim o'ziga xos hayotiy dolzarblikni vujudga keltiradi. Chunki bir huquq subyektning barham topishi va uning o'rniga yangi huquq subyektning vujudga kelish yoki mol-mulkning keyingi taqdirini hal qilish masalalari har bir davlat uchun hamma vaqt muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Zero, ushbu munosabatlarning mamlakatda qanday tartibga solinganligi qarab, davlatning iqtisodiy rivojlanishini belgilab olish mumkin.

Maqolada mualliflar tahlil, sintez, taqqoslash, deduksiya kabi umumiy ilmiy usullardan, shuningdek, bir qator aniq ilmiy usullardan foydalanadilar: nazariy va huquqiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, hujjatlarni tahlil qilish, mantiqiy usul, tizimli tahlil usuli, tarixiy usul, texnik usul.-huquqiy tahlil va boshqalar.

Maqolada nafaqat zarur huquqiy hujjatlar, sud amaliyotining qarorlari, balki huquqshunos olimlarning asarlari taqdim etilgan keng nazariy materiallar ham ko'rib chiqiladi. Ushbu maqolaning natijasi O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy bazasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha asosli va aniq muallif takliflari bo'lib, uning maqsadi yuridik shaxslarni bekor qilish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarning

murakkab makonini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'lib hisoblanadi.

Bu takliflar muallifning yangiligi bo'lib, nafaqat fuqarolik huquqi nazariyasi va ilmi, balki huquqni qo'llash amaliyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *huquq, yuridik shaxs, fuqarolik huquqi, fuqarolik huquqiy munosabatlari, subyekt, yuridik shaxs bekor bolish, yuridik shaxs tugatishilishi.*

SUMMARY

This article is Legal of individuals void to be each always to himself special vital relevance to the body brings _ Because one right of the subject I'm done to find and his instead of new right of the subject to the body to arrive or of property next fate solution to do issues each one state for everyone time important important have was _ Because this one of relationships in the country how in order the fact that depending on the state economic development set get can _

In the article, the authors use general scientific methods such as analysis, synthesis, comparison, deduction, as well as a number of specific scientific methods: analysis of theoretical and legal sources, comparison, summarization, document analysis, logical method, systematic analysis method, historical method, technical method .-legal analysis and others.

The article considers not only necessary legal documents, decisions of judicial practice, but also extensive theoretical materials presented by the works of legal scholars. The result of this article is the author's reasonable and clear proposals for amendments to the legal framework of the Republic of Uzbekistan, the purpose of which is to improve the legal documents regulating the complex space of legal relations related to the cancellation of legal entities. is lib.

These proposals are the author's innovation and are important not only from the point of view of the theory and science of civil law, but also from the point of view of law enforcement practice.

Key words: law, legal entity, civil law, civil legal relations, subject, annulment of legal entity, liquidation of legal entity.

KIRISH

Yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi har doim o‘ziga xos hayotiy dolzarblikni vujudga keltiradi. Chunki bir huquq subyektning barham topishi va uning o‘rniga yangi huquq subyektning vujudga kelish yoki mol-mulkning keyingi taqdirini hal qilish masalalari har bir davlat uchun hamma vaqt muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Zero, ushbu munosabatlarning mamlakatda qanday tartibga solinganligi qarab, davlatning iqtisodiy rivojlanishini belgilab olish mumkin.

Yuridik shaxslar bekor bo‘lishi bilan bog‘liq munosabatlar dolzarbligi yana shu bilan belgilanadiki, yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi davlat uchun bir vaqtning o‘zida ham salbiy, ham ijobjiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi bilan bog‘liq masalalar xususida fikr bildirib mamlakatimiz prezidenti, quyidaglarni bayon etgan edi:

- Hozirgi vaqtda davlat ishtirokidagi korxonalarning aksariyati moliyaviy barqaror bo‘lmasani uchun davlatga og‘ir yuk bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun joriy yildan barcha davlat korxonalarini isloh qilish dasturi amalga oshirilmoqda.¹⁵

Darhaqiqat, qarzdor korxonalarning tugatilishi shu korxona bilan iqtisodiy aloqada bo‘lgan boshqa korxonalarning qarzdorlikdan qutulishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR BO‘LIMI

Yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi masalalari bo‘yicha A.Shukrullaev tadqiqot olib borgan bo‘lib, uning tadqiqot ishi faqatgina qishloq xo‘jaligi korxonalarini qayta tashkil etish va tugatishning huquqiy tartibga solinishiga bag‘ishlanadi¹⁶. S.Xolboev

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

¹⁶ Шукруллаев А.Х. Қишлоқ хўжалиги корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик-хукукий тартибга солиниши: Юрид.фан.номз.... Дисс. – Тошкент: 2001. – 154 б.

esa to‘la xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan korxonalarning bekor bo‘lishi masalalari bilan shug‘ullangan bo‘lsa¹⁷, T.M.Turebekov jamoat birlashmalarining fuqarolik huquqi subyektliligi nuqtai-nazaridan ularning bekor bo‘lishi masalalarini¹⁸, S.S.Gulyamov, J.I.Yuldashev, O.Toshevlar esa aksiyadorlik jamiyatlarini qayta takshil etish va tugatishning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishgan¹⁹, F.Qutlimuratov yuridik shaxslarning majburiy qayta tashkil etish jihatlarini, N.Lopaeva esa yuridik shaxslar bankrotiligi masalalarini tadqiq etgan²⁰.

NATIJALAR

Taqdiqot ishi shu bilan belgilanadiki, unda bildirilgan takliflar, umumlashtirilgan xulosa va qoidalardan O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni bekor bo‘lishi tartibga soluvchi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni qo‘llashga oid nazariy va amaliy qoidalarni rivojlantirishda, yuridik shaxslarning bekor bo‘lishiga oid qonun hujatlarini takomillashtirishda, yuridik shaxslarni bekor bo‘lish asoslari va usullarini amaliyotda qo‘llashda foydalanish mumkin.

MUHOKAMA

Shuni ta’kidlash kerakki, bu masala bo‘yicha ba’zi fikrlar mavjud. Shunday qilib, Yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi xususida huquqshunos olimlar turli fikrlarni bilidirishadi. I.B.Zokirovning fikricha Respublikamiz hozirgi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish davrida yuridik shaxslar ko‘pincha qayta tashkil bo‘lish yo‘li bilan bekor bo‘ladilar²¹. I.V.Yeleseev ta’kidlashicha esa yuridik shaxslar faoliyatining

¹⁷ Холбоев С.Б. Тўла хўжалик юритиш хукуки субъекти сифатида корхонанинг мулкий-хукукий лаёқати. Юрид.фунд.номз....дисс. Автореф.-Тошкент: 1994.-19 б.

¹⁸ Туребеков Т.М. Общественные объединения как субъекты гражданского права. Автореф.дис....канд.юрид.наук.-Тошкент: 2002 .-25 с.

¹⁹ Гулямов С.С. Некоторые проблемы процессов реорганизации акционерных обществ в Узбекистане. //Обзоро законодательства Узбекистана.-Тошкент, 2004. -№4. -С.13.; Юлдашев Ж.И. Акциядорлик жамиятлари – фуқаролик хуқуқининг субъекти сифатида.-Тошкент:ТДЮИ. 2004. -84 б.; Тошев О. Акциядорлик жамиятлари бекор бўлишида мол-мулкнинг хукукий холати. / «Фуқаролик процессуал қонунчилиги ва суд ислоҳотлари» мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари.-Тошкент: ТДЮИ, 2005.- Б.107.

²⁰ Лопаева Н. Практика рассмотрения хозяйственным судом города Ташкента заявлений о признании должников банкротами.//Хозяйство и право.-Тошкент, 1999. -№11-12. - С.69-72.

²¹ Зокиров И.Б. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик хукуки.-Тошкент: Адолат, 1996. -58 б.

bekor bo‘lishi uni qayta tashkil etish va tugatish asosida amalga oshiriladi²². J.I.Yuldashevning fikricha qayta tashkil etish uchun bekor bo‘lish iborasini qo‘llash ma’qul. Zero, tugatish bekor bo‘lishning bir shakli sifatida e’tirof etilsa, turli xil adashmovchiliklarni (umumiylar ma’noda tugatish va uning shakli sifatida ham tugatish iborasi ishlatilganda) keltirib chiqarishi mumkin²³. Yuqorida ifodalangan dastlabki ikki fikrga e’tiroz bildirmagan holda J.I.Yuldashev tomonidan bayon qilingan mulohazalar bahsli ekanligini ta’kidlash lozim.

XULOSO

Ilmiy-nazariy xulosalarga va amaliy tavsiyalarga kelindi:

1. Nazarimizda FKning 49-moddasidagi «o‘zgartirish» atamasi «tashkiliy-huquqiy shaklning o‘zgartirilishi» - deb nomlanishi kerak.
2. FKning 53-moddasi 2-qismi birinchi bandida belgilangan «yuridik shaxsni tashkil qilish chog‘ida qonun hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo‘lmasa, sud yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazishni haqiqiy emas deb topganida» jumlesi, ushbu modda 2-qismining ikkinchi bandiga o‘tkazilish lozim. Bunday o‘zgarish yuridik shaxsni tugatishning majburiy ushbu asosini majburiy tartibda bekor bo‘lish asoslari jumlasiga kiritgan bo‘lar edi. Zero, yuridik shaxsni tashkil qilish chog‘ida qonun hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo‘lmasa, sud yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazishni haqiqiy emas deb topganida tugatish yuridik shaxsni majburiy tartibda tugatish asosi hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning bekor bo‘lish tushunchasining mohiyati va mazmuni xususida to‘xtalib, «bekor bo‘lish» atamasi huquqiy mazmunga ega, amalga oshirilish muayyan huquqiy oqibatni vujudga keltiradigan, fuqarolik huquqi subyektliligi maqomini belgilashda ta’sir ko‘rsatadigan yuridik faktning o‘ziga xos turi degan xulosaga kelish mumkin. Zero, yuridik fakt singari «bekor bo‘lish» qonun yo‘l qo‘ygan

²² Гражданское право./ Под.ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого.Т.1.-М.:2003.Проспект,-162 с.

²³ Юлдашев Ж.И. Акциядорлик жамиятлари – фуқаролик хуқуқининг субъекти сифатида.-Тошкент: ТДЮИ, 2004.-137 б.

harakatlar orqali amalga oshiriladi va hamma vaqt fuqarolik huquq va burchlarini (boshqacha aytganda subyektlilikni) bekor bo‘lishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси: [Мазкур янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 2023-йил 30-апрел куни ўтказилган Ўзбекистон Республикаси референдумида умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилинган]. – Текст: электрон // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – URL: <https://lex.uz/docs/6445145>.
2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. –Тошкент: Адолат. 2022. –520 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 28 июлдаги №ПФ-2331 сонли «Молия-хўжалик фаолиятни амалга оширмаётган ва қонунчиликда белгиланган муддатларда ўзларининг устав жамғармаларини шакллантирган корхоналарни тугатиш тартиби соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
5. Шукруллаев А.Х. Қишлоқ хўжалиги корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик-хуқуқий тартибга солиниши: Юрид.фан.номз.... Дисс. – Тошкент: 2001. – 154 б.
6. Холбоев С.Б. Тўла хўжалик юритиш хуқуқи субъекти сифатида корхонанинг мулкий-хуқуқий лаёқати. Юрид.фан.номз....дисс. Автореф.- Тошкент: 1994.-19 б.
7. Туребеков Т.М. Общественные объединения как субъекты гражданского права. Автореф.дисс....канд.юрид.наук.-Тошкент: 2002 .-25 с.
8. Лопаева Н. Практика рассмотрения хозяйственным судом города Ташкента заявлений о признании должников банкротами./Хозяйство и право.-Тошкент, 1999. -№11-12. - С.69-72.

9. Зокиров И.Б. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик ҳукуқи.-Тошкент: Адолат, 1996. -58 б.
10. Гражданское право./ Под.ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого.Т.1.-М.:2003.Проспект,-162 с.
11. Юлдашев Ж.И. Акциядорлик жамиятлари – фуқаролик ҳукуқининг субъекти сифатида.-Тошкент: ТДЮИ, 2004.-137 б.
12. Братус С.Н. Субъекты гражданского права.-М.: Юридлит, 1950.-367 с.
13. <https://stat.sud.uz/iib.html>